

VYETNAM TILIDAGI “CÁI” HISOB SO‘ZINING FONETIK KELIB CHIQUISHI: TARIXIY-FONOLOGIK TAHLIL



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-135-143>

Qodirova Dilbarxon Mirzaxparovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o‘qituvchisi

godirova.dilbarxon@yandex.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vyetnam tilidagi keng qo‘llaniladigan hisob so‘zlari - “cái”ning fonetik kelib chiqishi, tarixiy fonologik va semantik taraqqiyoti tahlil qilinadi. Vyetnam tili analitik til bo‘lib, morfologiyasi sodda, ammo sintaksisi murakkab, shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo tillarida keng tarqalgan klassifikatorlar tizimiga ega. Hisob so‘zlar predmetlarni sanash va tasniflashda, shuningdek, ontologik va semantik xususiyatlarini belgilashda asosiy vosita hisoblanadi.

Maqolada quyidagilar amalga oshiriladi: vyetnam tilidagi klassifikator tizimi va tipologik xususiyatlari tahlil qilinadi; *cái* hisob so‘zining Proto-Viet va xitoy tilidan kelib chiqqan fonetik-etimologik ildizlari o‘rganiladi; qadimgi sino-vyetnam lug‘atlari va *Chữ Nôm* yozuvlari orqali bu birliklarning tarixiy qo‘llanilishi misollar bilan ko‘rsatiladi; shuningdek, ularning hozirgi zamon vyetnam tilidagi semantik va grammatik differensiallashuvi izohlanadi. Tadqiqot Michel Ferlus (1982) fonetik izlanishlari va boshqa manbalarga tayangan.

Natijada, *cái* hisob so‘zi proto-viet ildizidan kelib chiqqan va xitoycha 個 (*gè*) klassifikatori bilan mustahkamlangan bo‘lib, fonetik va semantik jihatdan Vyetnam tilida mustaqil klassifikator sifatida shakllanganligi tasdiqlanadi. Shu bilan birga, *con* hisob so‘zi jonli mavjudotlar uchun ishlatiladigan markaziy klassifikator sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Vyetnam tili, hisob so‘zlar, klassifikatorlar, *cái*, fonetik-etimologiya, *Chữ Nôm*, semantik taraqqiyot.

Abstract: This article analyzes the phonetic origin, historical phonological development, and semantic evolution of the widely used Vietnamese classifier *cái*. Vietnamese is an analytic language with a simple morphology but complex syntax, and it possesses a classifier system that is prevalent across Southeast Asian languages. Classifiers serve as a primary tool for counting and categorizing objects, as well as for marking their ontological and semantic properties.

The study undertakes the following: it analyzes the classifier system in Vietnamese and its typological features; it examines the phonetic-etymological roots of the cái classifier, tracing them to Proto-Viet and Chinese; it provides examples of the historical use of this unit through ancient Sino-Vietnamese dictionaries and Chữ Nôm script; and it explains their contemporary semantic and grammatical differentiation in modern Vietnamese. The research relies on Michel Ferlus's phonetic studies (1982) and other sources.

As a result, the cái classifier is confirmed to have originated from Proto-Viet roots and to have been reinforced by the Chinese classifier 個 (gè), forming an independent classifier in Vietnamese both phonologically and semantically. At the same time, the con classifier is analyzed as the central classifier used for animate beings.

Keywords: Vietnamese, classifiers, cái, phonetic-etymology, Chữ Nôm, semantic development.

KIRISH

Vyetnam tili **analitik til**¹ bo'lib, morfologiyasi sodda, ammo sintaksisi murakkab. Vyetnam tili ham Janubi-Sharqiy Osiyo tillarida keng tarqalgan **hisob so'zlar tizimi** (klassifikatorlar systemasi)ga ega bo'lib, bu birliklar grammatik strukturada qator funksiyalarni bajaradi, shuningdek, bu tizim yordamida sanash va predmetlarni toifalash jarayonida qator maxsus so'zlardan foydalaniladi. Ularning eng qadimiy va markaziyalaridan biri – “**cái**” hisob so'zidir.

¹ Izoh: Analitik til – bu so'zlar orasidagi grammatik munosabatlar asosan so'z tartibi va yordamchi so'zlar orqali ifodalanadigan til turidir. Bunday tillarda so'zlarning shakllari (ya'ni qo'shimchalar, affiksalar) kam yoki umuman bo'lmaydi. Analitik tilning asosiy xususiyatlari: 1) So'z shakllari deyarli o'zgarmaydi – ya'ni so'zlar ko'plik, egalik, zamon, hol kabilarni bildiruvchi qo'shimchalarsiz ishlatiladi; 2) Grammatik ma'no tartib, yordamchi so'zlar yoki kontekst orqali ifodalanadi; 3) Qat'iy so'z tartibi mavjud bo'ladi, chunki bu tartib grammatik funksiyalarni belgilaydi; 4) Affiksatsiya (qo'shimchalar qo'shish) kam yoki yo'q; 5) Har bir so'z odatda bitta grammatik vazifani bajaradi.

Vyetnam tili to'liq analitik tilga yaqin bo'lgan tillardan biridir. Quyida vyetnam tilining analitik tilga xos xususiyatlari keltirilgan: 1. So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning yo'qligi. Vyetnam tilida so'zlar deyarli o'zgarmaydi. Masalan, otlar ko'plikda ishlatilganda maxsus qo'shimcha emas, balki yordamchi so'z qo'llaniladi: **con mèo** – mushuk - những con mèo – mushuklar. Bu yerda những – ko'plikni bildiruvchi yordamchi so'z; 2. **Fe'l zamonlarini bildiruvchi yordamchi so'zlar**. Zamon grammatik affiksalar bilan emas, balki yordamchi so'zlar bilan ifodalanadi: **Tôi đi học** – Men maktabga boraman; **Tôi đã đi học** – Men maktabga bordim (đã – o'tgan zamonni bildiradi); **Tôi sẽ đi học** – Men maktabga boraman/boramanchi (sẽ – kelajak zamon); 3. **Qat'iy so'z tartibi (SVO – Subyekt-Fe'l-Obyekt)**. So'z tartibi grammatikaning asosiy vositasi hisoblanadi: **Tôi ăn cơm** – Men ovqat yeyapman (Tôi – men, ăn – yeymoq, cơm – ovqat/guruch). Agar so'z tartibi o'zgarsa, gap ma'nosi ham o'zgaradi, chunki boshqa grammatik belgilovchilar yo'q. 4. Old qo'shimchalar yoki yordamchi so'zlar yordamida egalik ifodalanadi: sách của tôi – mening kitobim (của – egalik bildiruvchi yordamchi so'z); Umuman aytganda, **Vyetnam tili** analitik tilga xos barcha belgilarga ega: Qo'shimchalarning yo'qligi; Grammatik ma'noni yordamchi so'zlar orqali ifodalash; Qat'iy so'z tartibi; Kontekst va intonatsiyaning muhimligi. Shu bois vyetnam tili analitik tilning klassik namunasi hisoblanadi.

Hisob soʻzlar predmetning ontologik va semantik xususiyatlarini (jonli/jonsiz, odam/hayvon, shakl, kattalik va hokazo) aniqlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

“Cái” odatda jonsiz predmetlar va umumiy ashyo nomlari bilan sanash, tavsiflash bilan bogʻlanadi. Shu sababli bu hisob soʻz nafaqat hozirgi zamon vyetnam tili grammatikasida, balki uning tarixiy rivojlanishini oʻrganishda ham markaziy ahamiyat kasb etadi.

Biroq tarixiy taraqqiyot davomida bu birlikning semantik va grammatik funksiyalari oʻzgarib, koʻplab metaforik kengayishlarga ega boʻldi.

Mazkur maqolada cái hisob soʻzining fonetik kelib chiqishi, semantik taraqqiyoti tahlil qilinadi. Tadqiqot Michel Ferlus (1982) tomonidan olib borilgan fonetik izlanishlar, qadimgi sino-vyetnam lugʻatlaridagi leksik birliklar va chũ Nôm yozuvlari asosidagi materiallarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Mazkur ishning **asosiy maqsadi** — vyetnam tilidagi **cái** hisob soʻzining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va qadimgi yozma manbalardagi (epigrafi) tasdiqʻini ilmiy asosda yoritishdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi *vazifalar* belgilandi:

1. Vyetnam tilining klassifikatorli tizimi va uning tipologik xususiyatlarini umumiy nazariy asosda koʻrib chiqish;
2. **cái** hisob soʻzining fonetik-etimologik ildizlarini tahlil qilish;
3. Qadimgi sino-vyetnam lugʻatlaridagi birliklar orqali semantik qamrovini aniqlash;
4. Chũ Nôm yozuvlariga oid manbalarda **cái**ning qoʻllanishini misollar bilan tasdiqlash;
5. Ushbu birlikning hozirgi zamon vyetnam tilidagi semantik differentsiallashuvi va grammatiklashuv jarayonlarini izohlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolani yozishda ikki asosiy usulga tayanadi: **komparativ** (turli tillar va manbalarni solishtirish) va **deskriptiv** (holatni batafsil tavsiflash). Bu yondashuv orqali “cái” va “con” hisob soʻzlarining kelib chiqishi, fonetik oʻzgarishlari, semantik taraqqiyoti va yozuv shakllari vyetnamcha va xitoycha manbalar hamda oʻzbek tilidagi oʻxshash birliklar birlashtiriladi, yaʼni tadqiqot bir nechta manba va tillarni integratsiyalashgan tarzda amalga oshirildi. Proto-Viet va Sino-Vyet manbalariga tayangan holda “cái” soʻzining tarixiy ildizi aniqlandi (Ferlus, 1982)²;

² Michel Ferlus - 1935-yil Fransiyada tavallud topgan. Tilshunos, tarixiy fonetika mutaxassisi. U oʻz faoliyatini asosan Janubi-Sharqiy Osiyo tillarining fonetik rivojlanishi, tonogenez (tonal tizimlarning paydo boʻlish jarayoni), va morfologik oʻzgarishlarini tadqiq etishga bagʻishlagan; Ferlus Hmong-Mien, Austroasiatic (Mon-Khmer) va Vyetnam tillarida tonlarning shakllanishi haqida birinchi boʻlib ilmiy asoslangan nazariyalar ilgari surgan; “Essai de phonétique historique du vietnamien” (1982) — vyetnam tilining tarixiy fonetikasi haqida fundamental tadqiqot.

Xitoycha fonetik shakllardan vyetnamcha talaffuzga o'tish jarayonini tahlil qilishda ([gài] → cái) tarixiy leksik manbalar sifatida XVII–XVIII asr Sino-Vyet lug'atlari Đại Việt tự vị, Tự mẫu khảo lược, xususan, Vũ Văn Kínhning 2005 yil nashr qilingan “Đại tự điển chữ Nôm” - (“Chữ Nôm katta lug'ati”) lug'atidan foydalanildi va bu orqali Semantik evolyutsiyani kuzatish (iltijo → tilanchi → predmetlarni sanash imkoni bo'ldi hamda cái so'zining klassifikator vazifasi aniqlandi;

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Vyetnam tilidagi “cái” [kai] so'zi mustaqil morfema bo'lib, grammatik funksiyani bajaradi, ya'ni unga egrashgan so'zni mohiyatan to'liq tasniflash xususiyatiga ega hamda qo'llanilishi shart bo'lgan morfologik birlik hisoblanadi. (Ferlus, 1982: 95). O'zbek tilidagi muqobili: “dona”, “-ta” ma'nosida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, “dona” so'zi sanash uchun ishlatiladigan birlik bo'lib, odatda alohida, ajralgan narsalarni sanashda qo'llaniladi. Asosan jismoniy, ajratib bo'ladigan buyumlar uchun ishlatiladi va “nechta?” savoliga javob bo'ladi. (Jo'raboyeva, 2019: 112).

“-ta” qo'shimchasi o'zbek tilida son so'zlariga qo'shib, sanalmish predmet yoki shaxslar sonini bildiradi. Bu grammatik qo'shimcha hisoblanadi. (Karimov, 2010: 57).

Ko'pincha “-ta” va “dona” bir xil vazifani bajaradi, lekin “dona” rasmiyroq yoki aniq sanash uchun, “-ta” esa umumiyroq, so'zlashuvda kengroq ishlatiladi. (Qodirov, 2008: 74).

Bu ta'rif albatta bugungi kundagi zamonaviy vyetnam tili nuqtai-nazaridan berilgan ta'rifdir. (Loan Dao, 2011: 55).

Klassifikatorning o'zbek tilshunosligidagi rasmiy nomi **“numerativ”** yoki **“hisob so'zi”** bo'lib, bu numerativ birliklar ajratib ko'rsatilayotgan birlikning miqdorini aniqlash uchun ishlatiladi. Ular asosan predmet yoki shaxslar sonini belgilashda ishlatiladi (Jo'raboyeva, 2019: 112; Karimov, 2010: 57; Qodirov, 2008: 74).

Vyetnam tilidagi son va ot ortasidagi hisob so'z vazifasini bajaruvchi birliklar - o'zidan keyin kelayotgan ot so'zlarini tasniflab, miqdorni ifodalashiga ko'ra, hajmni ifodalashiga ko'ra, donalab sanashga ko'ra, uzunlik miqdorini ifodalashiga ko'ra qator guruhlarga ajratilib - numerativlar, hisob so'zlar, o'lchov so'zlar, sanoq so'zlar va h.k. nomlanadi. (Allan, 1977: 286; Aikhenvald, 2000: 113).

Cái hisob so'zining etimologiyasi va semantik taraqqiyoti yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish jarayonida quyidagilar aniqlandi. Michel Ferlus o'zining tarixiy fonetika bo'yicha tadqiqotlarida qayd etishicha, cái birligi qadimgi

Proto-Viet–Muong tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bu birlik dastlab mustaqil leksik so‘z vazifasini bajargan, semantik jihatdan “buyum”, “ashyoviy birlik”ni bildirgan va [káj] / [kaj¹] fonetik rekonstruksiya bilan ifodalangan, va predmetlarni umumiy holda belgilash uchun ishlatilgan (Ferlus, 1982: 95–97) va keyinchalik esa tarixiy rivojlanish jarayonida mustaqil grammatik birlikka aylangan. Shuningdek, sino-vyet yozuv an‘anasi orqali xitoy tilidagi 個 (gè) umumiy klassifikatori cái shaklining mustahkamlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan, ya‘ni Vyetnam tilidagi cái klassifikatori, xitoycha 個 (gè) ning grammatik funksiyalarini o‘zida aks ettiradi. Bu klassifikator, son va ot orasida joylashib, otlarni tasniflash va miqdorini ifodalashda ishlatiladi.

Xitoy tilidagi 個 (gè) umumiy klassifikatorining vyetnam tilidagi cái ning shakllanishiga bo‘lgan ta‘siri tilshunoslikda tan olingan muhim hodisadir. Bu ta‘sir asosan tarixiy va madaniy aloqalar, xususan, Xitoyning Vyetnam ustidagi ming yillik ma‘muriy hukmronligi (miloddan avvalgi 111 - milodiy 939) va keyingi davrlarda davom etgan chuqur madaniy ta‘sir natijasida yuzaga kelgan.

Tarixiy Kontekst: Vyetnam tiliga xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar soni juda ko‘p (Vyetnam tilining leksikasining 60-70% ini tashkil qiladi, bu so‘zlar *Hán-Việt* – “Xan-Vyet” deb ataladi). Xitoy tili o‘sha davrda rasmiy ma‘muriyat va adabiyot tili edi. Shuning bilan birga, klassifikatorlar (shaxs yoki narsalarni sanashda ishlatiladigan so‘zlar) kabi grammatik unsurlar ham tarqalgan.

個 (gè) ning o‘ziga xos xususiyati: Xitoy tilida 個 (gè) dastlab an‘anaviy ravishda “odam”lar uchun ishlatilgan, ammo vaqt o‘tishi u barcha narsalar, ayniqsa, mavhum tushunchalar yoki boshqa klassifikatorlar bilan aniq bog‘lanmagan narsalar uchun ishlatiladigan **eng umumiy va “xavfsiz” klassifikatorga** aylangan. Bu uning qo‘llanish doirasini juda kengaytirdi.

Vyetnam tilidagi “cái” ga o‘tishi: Vyetnam tilida cái an‘anaviy ravishda **inson qo‘li bilan yaratilmagan, mustaqil, o‘ziga xos mavjudotlar** (asosan, moddiy narsalar) uchun ishlatiladigan klassifikator bo‘lib, uning qo‘llanilishi dastlab xitoycha 個 (gè) ga qaraganda ancha cheklangan edi. Biroq, xitoy tilining kuchli ta‘siri tufayli, cái o‘z ma‘nosini kengaytirib, xitoycha 個 (gè) ning umumiy vazifasini o‘z zimmasiga oldi. [Lazarus, John D. “Vietnamese Classifiers and Synonymy.” *Oceanic Linguistics*, Vol. 13, No. 1/2, 1974, bet. 158. JSTOR.]

Vyetnam tilshunosligining yetuk olimi Nguyễn Đình Hoà ning **“Vyetnam tili haqida” (1997)** asarida bu ta‘sir aniqroq va batafsil bayon qilinib, “Eng keng tarqalgan klassifikator – bu cái bo‘lib, u asosan narsalar (inson emas) uchun ishlatiladi. Uning qo‘llanilishi xitoycha umumiy klassifikator gè (個) ta‘sirida

kengaygan... cái ko‘pincha mavhum otlar bilan ham qo‘llaniladi (masalan, cái đẹp – “go‘zallik”, cái theo – “imtiyoz”), bu xususiyat xitoycha 个 (gè) ning fonetik va semantik o‘zlashuvi sifatida Vyetnam tilida shakllanib, mustaqil grammatik birlikka aylangan.

Vyetnam tilshunosi Nguyễn Tài Cẩn tadqiqotlarida “cái” formasi qadimgi Sino-Vyet leksik manbalari hisoblangan 《大越字彙》 (Đại Việt tự vị, XVII asr) lug‘atlarida “predmetlarni sanashda qo‘llaniladigan birlik”, - sifatida qayd etilgan. Shuningdek, 《字母考略》 (Tự mẫu khảo lược, XVIII asr) manbasida ham bu so‘z klassifikator sifatida izohlangan (Nguyễn Tài Cẩn, 1979: 212). Bu ma’lumotlar “cái”ning XVII–XVIII asrlarga kelib umumiy hisob so‘z sifatidagi vazifasi mustahkamlanganini ko‘rsatadi.

Từ điển trích dẫn (“Iqtibosli lug‘at”) ma’lumotlariga ko‘ra: “Cái” birligi 𠂔 belgisi bilan bog‘lanadi → ya’ni, “cái” so‘zining yana bir yozuv shakli yoki fonetik variantidir, u qadimiy xitoycha belgisi 𠂔 bilan ma’no jihatidan yaqinlikka ega.

Vũ Văn Kínhning 2005 yil nashr qilingan “Đại tự điển chữ Nôm” - (“Chữ Nôm katta lug‘ati”)ning 150-151-sahifalarida “cái” (vyetnam tilidagi hisob so‘zi/klassifikator)ning turli yozuvdagi (chữ Hán va chữ Nôm) variantlari, ularning kelib chiqishi va qo‘llanishi haqida ma’lumot berilgan.

CÁI 𠂔 ÂHV 蓋

𠂔 GT Chữ Song (viết sai)

個 GT ÂHV Cá

𠂔 HT Cá 𠂔 + Cái 𠂔

𠂔 HT Kim 金 + Cái 𠂔

Con đại - mang,
Bố - đại Vương, -
ấn, - dấu, Con -,
Cột - nhà, Vợ -
con cột, Giống -,
Như bò -, trâu -,
Lừa -...

Unga ko‘ra, chap tomonda: [Birinchi qator] CÁI 马 / 蓋 (ÂHV)
Bu yerda “cái”ning qadimiy shakli sifatida 蓋 (cái) yoki 马 (mǎ) belgilanmoqda.
“ÂHV” – Âm Hán Việt (xitoy yozuvidan olingan sino-vyetnamcha talaffuz).

[Ikkinchi qatorda] _____ “GT” – giản thể (soddalashtirilgan shakl).

[Uchinchi qatorda] 個 (GT, ÂHV Cá)

Bu xitoy tilidagi 個 gè belgisi bo‘lib, bugungi kungacha **klassifikator** sifatida qo‘llanadi. Vietnamchada ham bu forma (cái) o‘zlashgan.

[To‘rtinchi qatorda] _____ (HT Cá) va _____ (HT Kim)
“HT” – hình thể (grafik shakli). Bu yerda boshqa belgilar bilan +Cái 马 qo‘shilib qo‘llanishi ko‘rsatilgan.

O‘ng tomonda:

Misollar berilgan:

- Con đại – mang (yovvoyi bola)
- Bồ – đại Vương (Ota - Buyuk hukmdor)
- Ân – dấu, Con – (muhr - belgi; bola)
- Cột – nhà (ustun - uyning ustuni)
- Vợ con cột (xotin- bola bog‘lanishi/ [xotin-bola-chaqa])
- Giống – (nasl, tur)
- Như bò, trâu; lừa... (sigir, ho‘kiz, eshak kabi). [Vũ Văn Kính. Vũ Văn

Kính.2025.150-151]

Ya‘ni, “cái” — turli narsalarni sanashda, jinsni ko‘rsatishda (masalan: cái – urg‘ochi, con – jonzot), hamda predmetlarni ajratishda ishlatiladigan **klassifikator**, - ekanligi ko‘rsatiladi..

Lug‘atda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rish mumkinki, “cái”ning grafik kelib chiqishi chũ Hán va chũ Nôm yozuv davridagi shakllari mavjud bo‘lib, Âm Hán Việt - Xitoycha-Vyetnamcha talaffuz me‘yorlariga tushirilgan hamda klassifikator-hisob so‘z vazifasini bajarish xususiyatlariga ega. Demak, “cái” — qadimdan xitoycha 個 gè klassifikatori bilan bog‘liq bo‘lib, vietnam tilida mustaqil **hisob so‘ziga** aylangan va narsalarni sanash, jinsni farqlash, predmetlarni belgilash uchun ishlatiladi.

Vyetnam yozuvi yuzasidan Xitoy mustamlakasi davrida bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, [繁體字 (murakkab ierogliflar)] – qadimiy klassik xitoy yozuvidagi asl, murakkab shakllardan [簡體字 (soddalashtirilgan ierogliflar)] – XX asrda (asosan 1950-yillarda) yozilishi soddalashtirilgan shakllarga o‘zgartirilgan.

Bunda ko‘p belgilar **semantik asosini saqlab qoladi**, faqat grafikasida qisqartirish [ma‘lum bir qism saqlanib qolib, o‘zgartirishlar kiritiladi] bo‘ladi.

Aynan “cái”ning yozilish variantlari yuzasidan **《Tự Điển Chữ Nôm Trích Dẫn》** lugʻatida 𠂔 belgisi “cái”ning qadimiy yozilish varianti sifatida kelishi va belgining murakkab va soddalashtirilgan variantlarida farq kuzatilmasligi aytiladi. tiriladi. Bu [belgi] 𠂔 iyeroglifning baʼzan boshqa belgilar bilan yozilgan variantlari ham uchraydi, lekin eng asosiy va keng tarqalgan shakli 𠂔 koʻrinishda ekanligi taʼkidlanadi. Belgining oʻqilish talaffuzi:

Xitoycha: 𠂔 (putonghua / mandarin) → gài (4-tovush, pastdan tushuvchi ohang);

Vyetnamcha Sino-oʻqilishi: cái;

Demak, 𠂔 → gài (xitoycha) → cái (vyetnamcha) fonetik jihatdan oʻzlashish - oʻtishlar natijasidir.

Maʼno taraqqiyoti jihatidan quyidagilarni ifodalaydi:

Xitoychada 𠂔 asosan “tilanmoq, soʻramoq” degan maʼnoda;

Vyetnam tilida esa fonetik shakl saqlanib qolib, semantik jihatdan kengayib, **ashyoviy predmetlarni bildiruvchi hisob soʻzi (klassifikator)** sifatida grammatiklashgan.

Shuningdek, Chữ Nôm yozuvi orqali saqlangan turli epigrafik matnlarda cái tez-tez uchraydi. Masalan:

- 一個人 (*nhất cái nhân*) — “bir odam” (XVII asr Nôm qoʻlyozmalaridan).
- 三個物 (*tam cái vật*) — “uchta buyum”.

Bu misollarda cái 個 grafemasi orqali ifodalangan boʻlib, fonetik jihatdan mahalliy vyetnamcha talaffuzga moslashtirilgan. Shuningdek, **Bình Định (1742)** yodgorlik yozuvida ham cái klassifikatori sanash birliklari tarkibida qayd etilgan (Ferlus, 1992; Nguyễn Quang Hồng, 2006).

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki,

- Cái klassifikatori tarixiy jihatdan proto-viet ildiziga ega boʻlib, xitoy tilidagi 個 bilan parallellikda mustahkamlangan.

- cái (繁體 / 簡體) yozilishida farq yoʻq — har ikkisi ham 𠂔 belgisi bilan ifodalanadi;

- uning oqilishi xitoychada gài, vyetnamcha oʻzlashma oʻqilishida esa cái, yaʼni (cái) belgisi keyinchalik 借音 (oʻqilishi qarzga olingan belgilar) usulida oddiy predmetlar uchun qoʻllanadigan **klassifikator cái** ni ifodalash uchun ishlatila boshlagan;

- Bu fonetik oʻzgarish Vyetnam tilidagi hozirgi hisob soʻzi “cái”ning tarixiy manbasidir;

- Tarixiy-etimologik jihatdan **cái** - 才 ning **birinchi bosqichda** – “iltijo qilish, so‘ramoq”; **ikkinchi bosqichda** – “tilanchi”; va **uchinchi bosqichda** – “predmetlarni sanash uchun umumiy klassifikator” ma’nolarini ifodalagan;

ADABIYOTLAR

1. **Ferlus, M.** (1982). *Essai de phonétique historique du vietnamien, les dialectes viet-mu’o’ng*. Cahiers de linguistique – Asie Orientale, 11(1), 83–123.
2. **Loan Dao.** (2011). *The Vietnamese classifiers “con”, “cái” and the Natural Semantic Metalanguage (NSM) approach: A preliminary study*. In: Ponsonnet, M., Dao, L., & Bowler, M. (eds.), *Proceedings of the 42nd Australian Linguistic Society Conference 2011*. ANU Research Repository.
3. **Allan, K.** (1977). *Classifiers*. Language, 53(2), 285–311.
4. **Aikhenvald, A. Y.** (2000). *Classifiers: A typology of noun categorization devices*. Oxford: Oxford University Press.
5. **Karimov, Sh.** (2010). *O‘zbek tilida grammatik qo‘shimchalar tizimi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. **Qodirov, A.** (2008). *O‘zbek tili grammatikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
7. **Jo‘raboyeva, M.** (2019). *O‘zbek tilida sanoq-kategoriya birliklari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
8. Qodirova, Dilbarxon Mirzaxparovna. "VYETNAM TILIDAGI “CÁI”[kai] VA “CON”[kon] HISOB SO ‘ZLARINING QIYOSIY TAHLILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 5.4 (2025): 458-469.
9. Каримов Акрамджан. "СЕМАНТИЧЕСКИЕ РЯДЫ КИТАЙСКИХ ЭКВИВАЛЕНТОВ К СЛОВУ «ЧИТАТЬ»" *Sharq ma'shali / Восточный факел*, vol. 14, no. 1, 2022, pp. 43-52. doi:10.5281/zenodo.7190498
10. Каримов, Акрамджан. "Некоторые теоретические аспекты образования терминов китайского языка." *Востоковедения* 1.1 (2015): 14-23.
11. Назарова, Сайёра. "К ВОПРОСУ О РАЗРАБОТКЕ МЕТОДИКИ ПО РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ." *Sharq ma'shali/Vostочный факел* 14.1 (2022): 60-66.